

**"Ipoteka-bank" ATIB Boshqaruvining
2025 yil 27 yanvardagi
15-sonli yig'ilish bayoni bilan
«TASDIQLANGAN»**

**“APPROVED”
by the Management Board
of the JSCMB “Ipoteka-bank”
Protocol No.15 dated
January 27, 2025.**

**“IPOTEKA-BANK” ATIB TIZIMIDA
JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUHOJATLARI BILAN ISHLASH
TARTIBI TO'G'RISIDAGI
NIZOM**

**JSCMB “IPOTEKA-BANK” SYSTEM
REGULATIONS ON THE PROCEDURE FOR HANDLING APPLICATIONS FROM
INDIVIDUALS AND LEGAL ENTITIES**

MAXFIYLIK TO'G'RISIDA OGOHLANTIRISH / CONFIDENTIALITY NOTICE

Ushbu hujjatdagi ma'lumotlar maxfiy bo'lib, faqat ichki foydalanish uchun mo'ljallangan, "Ipoteka-Bank" ATIB uning egasi hisoblanadi. Barcha huquqlar himoyalangan. Ushbu hujjatning hech bir qismi elektron yoki mexanik vositalar yordamida, foto nusxa, yozuv yoki boshqa usul bilan ishlatilishi mumkin emas va uni saqlash yoki har qanday ma'lumotlarni saqlash tizimiga o'tkazilishi mumkin emas, "Ipoteka-Bank" ATIB oldindan yozma ravishda rozilik bergan holatlar bundan mustasno.

The information contained in this document is confidential and intended for internal use only, and belongs to JSCMB “Ipoteka-bank”. All rights reserved. No part of this document may be used by electronic or mechanical means, by photocopying, writing or any other method, and may not be stored or transferred to any data storage system, except for cases with the prior written consent of JSCMB “Ipoteka-bank”.

Toshkent sh., 2025-yil / Tashkent city, 2025

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"		
<i>Hujjat nomi:</i>	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>	
<i>Document name:</i>	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>	
<i>ID: PL-25-2-102</i>	<i>Tahrir / Version: 1.0</i>	<i>Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025</i>
		<i>Effective date: 27.01.2025</i>

Mundarija:

I. Umumiy qoidalar	4
II. Murojaatlarga qo'yiladigan talablar	10
III. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va ko'rib chiqish tartibi	11
IV. Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari.....	26
V. Murojaatlarni ko'rmay qoldirish va ko'rib chiqishni tugatish	27
VI. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishni tashkil etish	30
VII. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini videokonferentsaloqa vositasida qabul qilishni tashkil etish	34
VIII. Murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning shuningdek bankning huquq va erkinliklari	35
IX. Murojaatlarning ko'rib chiqilishini monitoring va nazorat qilish, umumlashtirish va tahlil qilish	38
X. Yakunlovchi qoidalar	39

Contents:

I. General Rules	4
II. Requirements for Applications	10
III. Procedures for Receiving, Registering, and Processing Appeals from Individuals and Legal Entities	11
IV. Deadlines for reviewing applications.....	26
V. Ignoring and concluding the review of applications	27
VI. Organizing the reception of physical persons and representatives of legal entities.....	30
VII. Organizing the Reception of Individuals and Representatives of Legal Entities via Video Conference.....	34
VIII. Rights and Freedoms of Individuals and Legal Entities during Application Review	35
IX. Monitoring, Control, Consolidation, and Analysis of Application Reviews	38
X. Concluding Rules	39

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"		
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>	
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>	
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025
		Effective date: 27.01.2025

HUJJATNI QAYTA KO'RIB CHIQISH XRONOLOGIYASI / DOCUMENT REVIEW CHRONOLOGY

Hujjat nomi / Document Name	"Ipoteka-bank" ATIB tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Nizom / JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities		
	Boshqaruv organi / Structure Name		Sana / Date
Tasdiqlagan / Approved by:	"Ipoteka-bank" ATIB Boshqaruvi / "Ipoteka-bank" JSCMB Management Board		27.01.2025
Ishlab chiqilgan / Developed by:		Sana / Date	Imzo / Signature
Bank Ijro apparati Murojaatlar bilan ishlash Departamenti / Department for works with appeals in the bank's Executive Office		20.01.2025	
Kelishilgan / Agreed by:			
Yuridik direksiya / Legal Directorate		20.01.2025	
Tahrir raqami / Edition Number	Tasdiqlangan sana / Approval Date	Kuchga kirish sanasi / Effective Date	Kiritilgan o'zgarishlar bo'yicha qisqacha sharh / Brief Description of Changes
1.0	27.01.2025	27.01.2025	Hujjat ishlab chiqildi / Document developed

HUJJATNI SAQLASH VA FOYDALANISH NAZORATI / DOCUMENT STORAGE AND USAGE CONTROL

Hujjatni saqlash quyidagi jadvalda ko'rsatilgan ro'yxat bo'yicha amalga oshiriladi / The storage of the document is carried out according to the following table:

No	Hujjat saqlovchilari (lavozimi) / Document Custodians (Position)	Hujjat formati / Document Format
1	Bank Ijro apparati Boshqaruv kotibi / Secretary of the Bank's Executive Office	Imzolangan nusxasi (pdf) / Signed copy (pdf)
2	Bank Ijro apparati Murojaatlar bilan ishlash Departamenti / Department for works with appeals in the bank's Executive Office	PDFda nusxa (elektron shaklda) / Copy in PDF (electronic form)
3	Ijro intizomini nazorat qilish departamenti, barcha filiallar/HUB/bank xizmatlari markazlari / Department of performance discipline control, branches/HUBs/BSCs	PDFda nusxa (elektron shaklda) / Copy in PDF (electronic form)

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

1. Umumiy qoidalar	1. General rules
<p>1.1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunlariga hamda Markaziy bankning 2018 yil 2 iyulda 3030-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.</p>	<p>1.1. This Regulation has been developed in accordance with the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the laws on "The Central Bank of the Republic of Uzbekistan," "Banks and Banking Activities," "Application of Individuals and Legal Entities," and the "Standard Regulation on the Procedure for Handling Application of Individuals and Legal Entities in State Bodies, State Institutions, and Organizations with State Participation," approved by the decision No. 341 of the Cabinet of Ministers dated May 7, 2018. It also aligns with the Regulation "On Minimum Requirements for the Activities of Commercial Banks in Conducting Relations with Consumers of Banking Services," registered with the state under No. 3030 on July 2, 2018, by the Central Bank.</p>
<p>1.2. Ushbu Nizom "Ipoteka-bank" ATIB (keyingi o'rinlardagi "bank" deb ataladi) tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning, shuningdek ularning vakillarining og'zaki, yozma hamda elektron (ariza, taklif, shikoyat) murojaatlari (keyingi o'rinlarda "murojaat" deb ataladi) bilan ishlash tartibini belgilaydi.</p>	<p>1.2. This Regulation establishes the procedure for handling oral, written, and electronic appeals (applications, suggestions, complaints) (hereinafter referred to as "appeals") from individuals and legal entities, as well as their representatives, within the system of JSCMB "Ipoteka-bank" (hereinafter referred to as "the bank").</p>
<p>1.3. Bankka kelib tushgan murojaatlar ushbu Nizomning 1.1-bandida ko'rsatib o'tilgan me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ko'rib chiqiladi.</p>	<p>1.3. Appeals received by the bank are reviewed in accordance with the requirements of the regulatory documents specified in clause 1.1 of this Regulation.</p>
<p>1.4. Ushbu Nizomning amal qilishi:</p>	<p>1.4. The application of this Regulation:</p>
<p>1.4.1. ko'rib chiqish tartibi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, iqtisodiy protsessual qonun</p>	<p>1.4.1. Does not apply to administrative accountability, civil procedural, criminal procedural, criminal execution, economic</p>

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlarga;	procedural law documents and other laws concerning applications;
1.4.2. Bankning, shuningdek uning tarkibiy bo'linma filial, viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLarining o'zaro yozishmalariga hamda ish beruvchi va xodimlarning mehnat munosabatlariga oid yozishmalariga nisbatan tatbiq etilmaydi (O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasi, 1 va 2-bandlari).	1.4.2. This does not apply to the correspondence between the bank and its structural subdivisions, regional territorial branches (HUBs), and BXMs, as well as the correspondence related to labor relations between the employer and employees (Article 1, paragraphs 1 and 2 of the Law of the Republic of Uzbekistan 'On Appeals of Individuals and Legal Entities').
1.5. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:	1.5. The following concepts are used in this Regulation:
bank - "Ipoteka-bank" ATIB Bosh ofisi va filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLari;	Bank: The Head Office of JSCMB "Ipoteka-bank" and its branches, regional branch offices (Hubs), BSCs;
ariza - huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimos bayon etilgan murojaat;	Application: a request expressing the need for assistance in exercising rights, freedoms, and lawful interests;
taklif - davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan murojaat;	Proposal: a request containing recommendations for improving the activities of the state and society;
shikoyat - buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to'g'risidagi talab bayon etilgan murojaat;	Complaint: a request stating a demand for the restoration of violated rights, freedoms, and the protection of lawful interests;
murojaat - jismoniy va yuridik shaxslar (yoki ularning vakillari)dan kelib tushgan og'zaki, yozma yoxud elektron shakldagi ariza, taklif yoki shikoyatlar;	Appeal - oral, written, or electronic applications, proposals, or complaints received from individuals and legal entities (or their representatives).
murojaat etuvchi - jismoniy va yuridik shaxslar (yoki ularning vakillari);	Appellant: individual and Legal entities (or their representatives);
elektron murojaat - belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat, real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og'zaki murojaatlar bundan mustasno;	Electronic application: an application submitted via information and communication technologies, including those posted on the bank's official website, except for oral applications made in real-time using information and communication technologies;

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"					
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>				
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>				
ID: PL-25-2-102	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%;">Tahrir / Version: 1.0</td> <td>Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025</td> </tr> <tr> <td></td> <td>Effective date: 27.01.2025</td> </tr> </table>	Tahrir / Version: 1.0	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025		Effective date: 27.01.2025
Tahrir / Version: 1.0	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025				
	Effective date: 27.01.2025				

<p>takroriy murojaat - ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilinayotgan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilayotgan, shuningdek, agar takroriy murojaat kelib tushgan paytga kelib qonun hujjatlarida belgilangan ko'rib chiqish muddati tugagan bo'lsa, ilgarigi murojaati o'z vaqtida ko'rib chiqilmaganligi to'g'risida xabar qilinayotgan murojaat;</p>	<p>Repeated application: an application from the same physical or legal person expressing dissatisfaction with or appealing against the decision taken on their previous application, as well as an application reporting non-consideration of their previous application within the legally established deadlines if such deadlines have passed;</p>
<p>anonim murojaat - jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar yoki yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yoxud ular haqida yolg'on ma'lumotlar ko'rsatilgan murojaat, shuningdek uni identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan elektron murojaat yoxud imzo bilan tasdiqlanmagan yozma murojaat;</p>	<p>Anonymous application: an application where the individual's surname (first name, patronymic), residential details, or the full name and location (postal address) of the legal entity are not indicated or are falsely provided, including electronic applications that do not allow for identification or are not verified by signature;</p>
<p>murojaatning dublikati - ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxs murojaatining ko'chirma nusxasi;</p>	<p>Duplicate of the application: a copy of an application from the same physical or legal person;</p>
<p>videokonferentsaloqa - uzoqda joylashgan bir nechta abonentlarning real vaqt rejimida audio va videoaxborot almashish imkoniyati bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda muloqot qilishi;</p>	<p>Video conference: - communication using information and communication technologies that allows multiple remote participants to exchange audio and video information in real time;</p>
<p>EHA dasturi – Ipoteka-bankning elektron hujjatlar aylanmasi platformasi;</p>	<p>EDM system – Ipoteka-bank's electronic document management platform;</p>
<p>rahbar - "Ipoteka-bank" ATIB Boshqaruvi Raisi, uning o'rinbosarlari, Boshqaruv a'zolari, filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM boshqaruvchilari va ularning o'rinbosarlari, bank xizmatlari markazlari mudirlari hamda ishonchnoma asosida vakolat berilgan shaxslar;</p>	<p>Executive: Chairman of the Management Board of JSCMB "Ipoteka-bank", his deputies, members of the management, managers of branches, regional branch offices (Hubs), BSCs and their deputies, managers of banking service centers, and persons authorized on the basis of a power of attorney;</p>

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"		
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>	
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>	
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025
		Effective date: 27.01.2025

Murojaatlar bilan ishlovchi tarkibiy bo'linma – kelib tushgan murojaatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqish uchun yuborish, shuningdek murojaatlarning hisobini yuritish va ko'rib chiqilishini nazorat qilish maqsadida tashkil qilingan Bank ijro apparati tarkibidagi Departament.	Structural unit dealing with applications: a department within the bank's executive apparatus organized for the purpose of accepting, registering, forwarding, accounting, and supervising the consideration of applications.
Murojaatni ko'rib chiqish va ijrosini ta'minlash uchun mas'ul bo'linmalar – Bosh ofis/filial/XAB/BXMIlarning tegishli bo'linmalari.	Divisions responsible for reviewing and ensuring the execution of appeals – the relevant divisions of the Head Office/branches/HUBs/BSCs.
1.6. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bankka murojaat etish huquqiga ega.	1.6. According to the Law on "Application of Individuals and Legal Entities" of the Republic of Uzbekistan, Individuals and Legal entities, as well as stateless persons from both Uzbekistan and foreign countries, have the right to apply to the bank.
1.6.1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqidan foydalanishlari boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlarini buzmasligi kerak.	1.6.1. The right of Individuals and Legal entities to make applications must not violate the rights, freedoms, and lawful interests of other Individuals and Legal entities, nor the interests of society and the state.
1.7. Murojaatlar og'zaki yoki yozma yoxud elektron shaklda ariza, taklif va shikoyat shaklida berilishi mumkin.	1.7. Applications may be submitted in oral, written, or electronic form as applications, proposals, and complaints.
1.7.1. Bankka "Aloqa markazi" orqali O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan kelib tushgan murojaatlar og'zaki murojaat sifatida mazkur Nizomda belgilangan qoidalarga binoan qayd etiladi, ro'yxatga olinadi va ko'rib chiqiladi.	1.7.1. Applications received through the Contact Center based on the Law on "Application of Individuals and Legal Entities" of the Republic of Uzbekistan are registered, recorded, and considered according to the rules established in this Regulation.
1.7.2. Bankning rasmiy veb-sayti orqali yoki bankning rasmiy elektron pochta manziliga O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan kelib	1.7.2. Applications received via the bank's official website or its official email address based on the Law on "Application of Individuals and Legal Entities" of the Republic of Uzbekistan are recorded and

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

tushgan murojaatlar elektron murojaatlar tarzida qayd etiladi va mazkur Nizomda belgilangan qoidalarga ko'ra qayd etiladi hamda ko'rib chiqiladi.	considered as electronic applications according to the rules specified in this Regulation.
1.7.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari hamda Tadbirkorlar virtual ofisi orqali kelib tushgan murojaatlar ushbu Nizomda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.	1.7.3. Applications received through the Virtual Reception Office and the People's Reception Office of the President of the Republic of Uzbekistan, as well as the Entrepreneurs' Virtual Office, are considered according to the order specified in this Regulation.
1.7.4. Ommaviy axborot vositalari tahririyatlaridan kelib tushgan murojaatlar Qonunda hamda ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqiladi.	1.7.4. Applications received from the editorial offices of mass media are considered within the deadlines and according to the procedure provided by the Law and this Regulation.
1.8. Murojaatlar, ularning turi va shaklidan qat'i nazar bir hil ahamiyatga ega.	1.8. Applications, regardless of their type and form, are of equal importance.
1.9. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari yakka tartibda yoki jamoa tomonidan berilishi mumkin.	1.9. Applications from Individuals and Legal entities may be submitted individually or collectively.
1.10. Murojaatlar davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.	1.10. Applications may be submitted in the state language or other languages.
1.11. Bosh ofis va filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM rahbarlari murojaatlarni ko'rib chiqishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga rioya etishi, ularning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi uchun choralar ko'rishi, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklari tiklanishini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rishlari shart.	1.11. The heads of the Head Office and branches, regional branch offices (Hubs), BSCs must comply with the requirements of the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan when reviewing appeals, take measures to ensure their thorough, impartial, and timely consideration, and restore the violated rights and freedoms of individuals and legal entities.
1.12. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaat etish huquqidan foydalanayotganda ularni:	1.12. When Individuals and Legal entities exercise their right to make Appeals, they:
- jismoniy shaxsning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga, shuningdek yuridik shaxslarning mulk shakli, joylashgan yeri (pochta manzili), tashkiliy-huquqiy	- the discrimination of individuals based on gender, race, nationality, language, religion, social origin, beliefs, personal and social status, as well as the discrimination of legal entities based on their form of ownership,

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

shakllariga va boshqa holatlariga qarab kamsitilishi;	location (postal address), organizational-legal forms, and other circumstances;
- murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ularning roziligisiz, shuningdek davlat, tijorat va bank sirini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar, agar bu jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kamsitadigan bo'lsa, boshqa axborot bank xodimlari tomonidan oshkor etilishi;	- In considering applications, the personal life of physical persons, the operations of legal entities, and other information forming part of state, commercial, and banking secrets or other secrets protected by law may not be disclosed without their consent, if such disclosure would infringe on their rights, freedoms, and lawful interests;
- jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila a'zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a'zolarini ular o'z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish yoki himoya qilish maqsadida murojaat etganligi, shuningdek, murojaatlarda o'z fikrini bildirganligi va tanqid qilganligi munosabati bilan ta'qib etish qonun hujjatlariga asosan man etiladi;	- Physical persons, their representatives, their family members, legal entities, their representatives, and the family members of legal entity representatives who have applied for the realization or protection of their rights, freedoms, and lawful interests, as well as those who have expressed their opinions and criticisms in applications, must not be persecuted based on laws and regulations;
- jismoniy va yuridik shaxs to'g'risidagi murojaatga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlashga yo'l qo'yilmaydi. Jismoniy shaxsning iltimosiga ko'ra uning shaxsiga doir biron-bir ma'lumot oshkor etilmasligi kerak.	- Information irrelevant to the subject of the application must not be disclosed. On the request of a physical person, any personal information must not be disclosed.
1.13. Murojaatlar bankning rahbarlari yoki vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi shart. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunining 29, 30-moddalari va mazkur Nizomning 3.3.2, 5.1. hamda 5.4.-bandlarida nazarda tutilgan murojaatlar, bundan mustasno.	1.13. Appeals must be accepted and reviewed by the bank's executives or authorized officials. Exceptions include appeals provided for in Articles 29 and 30 of the Law "On Appeals of Individuals and Legal Entities" and clauses 3.3.2, 5.1, and 5.4 of this Regulation.
1.13.1. Ota-ona qarovisiz qolgan bolalarning bankka bevosita qilgan murojaatlarini to'liq ko'rib chiqish kafolatlanadi va bola to'liq muomala layoqatiga ega emasligi sabablari bilan	1.13.1. Full consideration is guaranteed for direct applications from children left without parental care, and no exceptions are made due to the child's lack of full legal capacity.

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

bunday murojaatlari ko'rib chiqilmasligiga yo'l qo'yilmaydi.	
1.14. Bank tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxemaga binoan amalga oshiriladi.	1.14. The handling of applications from Individuals and Legal entities within the bank system is carried out according to the scheme provided in Appendix 1 of this Regulation.
1.15. Bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq taqdim etilishi mumkin.	1.15. Information constituting a bank secret may be disclosed in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan on "Bank Secrecy."
2. Murojaatlarga qo'yiladigan talablar	2. Requirements for Applications
2.1. Jismoniy shaxsning murojaatida uning familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan, murojaatning mohiyati va mazmuni bayon etilgan bo'lishi kerak.	2.1. An individual's appeal must include their surname (first name, patronymic), place of residence, and must clearly state the essence and content of the appeal.
2.1.1. Yuridik shaxsning murojaatida yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.	2.1.1. A legal entity's appeal must include the full name of the legal entity, its location (postal address), and clearly state the essence of the appeal.
2.1.2. Jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida murojaat yuborilayotgan bankning aniq nomi, murojaat yuborilayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va (yoki) familiyasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.	2.1.2. The appeal from both an individual and a legal entity must specify the exact name of the bank to which the appeal is being sent, and the position and/or surname of the official to whom it is addressed.
2.1.3. Murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.	2.1.3. Appeals made through representatives must include documents verifying their authority.
2.2. Murojaatga u bo'yicha ilgari qabul qilingan mavjud qarorlar yoki ularning nusxalari, shuningdek, uni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar ilova qilinishi mumkin, mazkur hujjatlar qaytarilmaydi, murojaat etuvchi ularni	2.2. Previously accepted decisions or copies thereof, as well as other documents necessary for reviewing the appeal, may be attached to the appeal. These documents will not be returned, except in cases where the appellant has submitted a written request for their return.

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
<i>Hujjat nomi:</i>	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
<i>Document name:</i>	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
<i>ID: PL-25-2-102</i>	<i>Tahrir / Version: 1.0</i>
	<i>Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025</i>
	<i>Effective date: 27.01.2025</i>

qaytarish haqida yozma ariza bergan holatlar bundan mustasno.	
2.2.1. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar murojaat taalluqliligi bo'yicha boshqa davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga yuborilganda murojaatga ilova qilinishi kerak.	2.2.1. Documents that are pertinent to the appeal and are being sent to another state body, organization, or their official must also be attached to the appeal.
2.3. Yozma murojaat murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs vakolatli shaxsning imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.	2.3. A written appeal must be verified with the signature of the individual or the authorized representative of the legal entity making the appeal.
2.3.1. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo'shimcha ravishda yozib qo'yilishi kerak.	2.3.1. If it is not possible to verify a physical person's written appeal with their signature, then it must be verified with the signature of the person who wrote the appeal on their behalf, and their surname (first name, patronymic) must also be written additionally.
2.4. Jismoniy va yuridik shaxslar o'z murojaatini u ko'rib chiqilguniga qadar va ko'rib chiqilayotgan paytda murojaat bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar yozma yoki elektron shaklda ariza berish yo'li bilan chaqirib olish huquqiga ega. Bunday ariza tushgan taqdirda murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasiga asosan tegishli ishlar amalga oshiriladi.	2.4. Both individuals and legal entities have the right to withdraw their appeal either in written or electronic form until it is considered or until a decision is made on the appeal. If such a withdrawal is requested, the appropriate actions are carried out according to Article 30 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Appeals of Individuals and Legal Entities".
2.4.1. Murojaatni chaqirib olish to'g'risidagi ariza bank tomonidan qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rilishini istisno etmaydi.	2.4.1. A request to withdraw an appeal does not preclude the bank from taking measures to detect and address legal violations.
3. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va ko'rib chiqish tartibi	3. Procedures for Receiving, Registering, and Processing Appeals from Individuals and Legal Entities

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

3.1. Bankda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va ko'rib chiqish.	3.1. Receiving, registering, and processing appeals from individuals and legal entities at the bank.
3.1.1. Bankda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni va mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.	3.1.1. The procedure for receiving, registering, and processing appeals from individuals and legal entities at the bank is carried out in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Appeals of Individuals and Legal Entities" and this Regulation.
3.1.2. Jismoniy va yuridik shaxslarning yozma murojaatlari Bosh ofisda murojaatlar bilan ishlovchi tarkibiy bo'linma - Murojaatlar bilan ishlash Departamenti, filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM larda ijro nazorati bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan EHA dasturida belgilangan tartibda qayd etib boriladi.	3.1.2. Written appeals from individuals and legal entities are recorded in the EDM system in the prescribed manner by the structural division responsible for handling appeals - the Department for Works with Appeals at the Head Office, and by the executive control officers at the branches, regional branch offices (Hubs), BSCs.
3.1.3. Murojaatlar, kelib tushgan kunning o'zida, ish vaqti tamom bo'lgandan keyin tushgan taqdirda navbatdagi ish kunida ro'yxatga olinadi. Dam olish kunlarida kelib tushgan murojaatlar ham navbatdagi ish kunida ro'yxatga olinadi.	3.1.3. Appeals are registered on the day they are received; if received after the end of the working day, they are registered on the next working day. Appeals received on weekends are also registered on the next working day.
3.1.4. Barcha shakldagi (yozma, og'zaki va elektron) murojaatlarni EHA dasturida ro'yxatga olishda to'ldirilgan ma'lumotlar asosida ushbu Nizomning 2-ilovasida keltirilgan shakldagi hisobga olish (nazorat) kartochkasi avtomat tarzda shakllanadi. EHA dasturida ushbu Nizomning 3-ilovasida keltirilgan rekvizitlar bo'lishi kerak. Murojaatni ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.	3.1.4. Appeals in all forms (written, oral, and electronic) are registered in the EDM system based on the information provided, and an accounting (control) card in the form specified in Appendix 2 of these Regulations is automatically generated. The EDM system must include the requisites listed in Appendix 3 of these Regulations. Denial of registration of an appeal is not permitted.
3.1.5. Rahbar yoki vakolat berilgan shaxs murojaat bilan tanishgach, murojaatda ko'rsatilgan masalani ko'rib chiquvchi mas'ul xodim(lar)ni tayinlaydi va uni ko'rib chiqish muddatini belgilaydi. Zarur hollarda	3.1.5. After reviewing the appeal, the manager or authorized person assigns the appeal to the responsible employee(s) to consider the issue and determines the deadline for consideration. In necessary

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

murojaatni rahbarning o'zi shaxsan ko'rib chiqishi mumkin.	cases, the manager may personally review the appeal.
3.1.6. Jismoniy va yuridik shaxslarning barcha yozma, og'zaki yoki elektron murojaatlari kelib tushgandan keyin (rahbar yoki vakolat berilgan shaxsning rezolyusiyasi asosida ijro uchun yuborilgan) ushbu murojaatni ko'rib chiqish zimmasiga yuklatilgan tarkibiy bo'linma rahbari (yoki mas'ul xodimi) tomonidan ko'rib chiqiladi va ijro qilinadi. Murojaatning o'z vaqtida ijro qilinishi Murojaatlar bilan ishlash Departamenti, filiallarda ijro nazorati bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan nazorat qilib boriladi.	3.1.6. All written, oral, or electronic appeals received (sent for execution based on the resolution of the manager or authorized person) are considered and executed by the head (or responsible employee) of the department to which the appeal is assigned. Timely execution of the appeals is monitored by the Department for Works with Appeals and responsible employees for executive discipline in branches.
3.1.7. Bank Boshqaruvi Raisi, uning o'rinbosarlari, filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM rahbarlariga yoki bunga vakolat berilgan shaxsga ommaviy qabullar vaqtida tushgan va joyida hal etilgan og'zaki murojaatlarni ro'yxatdan o'tkazish talab qilinmaydi. Bunda jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, murojaatning qisqacha mazmuni, shuningdek, uni ko'rib chiqish natijasi ommaviy qabul bayonnomasida ko'rsatiladi.	3.1.7. Oral appeals received and resolved on the spot during public receptions by the Chairman of the Management Board, their deputies, branches, regional branch offices (Hubs), BSCs managers, or authorized persons are not required to be registered. In such cases, the individual's or legal entity representative's surname (first name, patronymic), information about their place of residence, a brief summary of the appeal, and the outcome of its review are recorded in the public reception minutes.
3.1.8. Murojaatlarni ro'yxatga olishda murojaatning tartib raqami, murojaat qilgan jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, uning yashash joyi, yuridik shaxsning nomi, uning manzili, murojaatning qisqacha mazmuni, murojaat qabul qilingan sana, dublikat yoki murojaatlarning takroriyliqi, nazoratga olinganligi to'g'risidagi belgi, ijrochi etib belgilangan bank tarkibiy bo'linmasi nomi, sana ko'rsatilgan holda ijro etish to'g'risidagi belgi ko'rsatiladi;	3.1.8. In registering appeals, the serial number of the appeal, the surname, name, and patronymic of the individual appellant, their place of residence, the name and address of the legal entity, a brief content of the appeal, the date of acceptance, indications of duplication or repetition, and the designated executing bank department are recorded;
- EHA dasturida avtomat tarzda ko'rinadigan qayd etish shtampida bank	- The registration stamp automatically displayed in the EDM system must include

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMning rasmiy nomi, murojaatning kelib tushgan sanasi va qayd raqami ko'rsatiladi;	the official name of the branches, regional branch offices (Hubs), BSCs, the date the appeal was received, and the registration number;
- Murojaatlarning tartib raqamlari har yil boshidan yangidan hisoblanadi.	- Serial numbers of appeals are recalculated at the beginning of each year.
3.1.9. Murojaat pochta orqali konvertda kelib tushganda, konvertda murojaat va uning ilovalari borligi tekshiriladi;	3.1.9. When an appeal arrives by mail in an envelope, the presence of the appeal and its attachments in the envelope is verified;
- konvertda murojaatning mavjud emasligi yoki uning yaroqsizlanganligi, shuningdek murojaatda ko'rsatilgan ilovalarning yo'qligi aniqlanganda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi, ulardan biri murojaatlar bilan ishlovchi tarkibiy bo'linmada qoladi, ikkinchisi murojaat qiluvchiga konvertda ko'rsatilgan manzil bo'yicha jo'natiladi;	- If the appeal is missing from the envelope, or if it is damaged, or if the attachments specified in the appeal are missing, an act is drawn up in two copies. One copy remains with the structural division handling appeals, and the other is sent to the appellant at the address indicated on the envelope;
- kelib tushgan murojaatlar konvertlari murojaat etuvchining manzilini, murojaatning jo'natilgan va olingan vaqtini aniqlash uchun saqlab qolinishi mumkin.	- Envelopes of received appeals may be retained to verify the appellant's address and the times of dispatch and receipt.
3.1.10. Og'zaki murojaatlar bilan kelgan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari Murojaatlar bilan ishlash Departamenti rahbari yoki boshqa mas'ul xodimi, shuningdek bank tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari yoxud boshqa mas'ul xodimlari tomonidan qabul qilinadi. Qabul vaqtida murojaat qiluvchining shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlar tekshiriladi.	3.1.10. Individuals and representatives of legal entities who come with oral appeals are received by the head of the Department for Works with Appeals or another responsible employee, as well as by the heads or other responsible employees of bank structural divisions. During the reception, documents verifying the identity of the appellant are checked.
3.1.11. Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari bankka og'zaki murojaat etganda, ular tomonidan taqdim qilingan yozma murojaatlar hamda boshqa materiallar qabul qilinishi va to'ldirilgan hisobga olish kartochkasiga ilova qilinishi kerak;	3.1.11. When individuals and representatives of legal entities make an oral appeal at the bank, any written appeals and other materials provided by them must be accepted and attached to the completed accounting card;
- ro'yxatga olingan murojaatlar kelib tushgan paytidan boshlab bir ish kundan	- Registered appeals must be assigned a resolution (instruction) by the Chairman of

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

kechikmay bank Boshqaruvi Raisi filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM rahbari) yoki uning o'rinbosari yohud vakolat berilgan shaxs murojaatni ko'rib chiqishga mas'ul tarkibiy bo'linmani (xodimni) belgilagan holda, murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha rezolyusiyani (topshiriqnomani) qo'yadi.	the Management Board branches, regional branch offices (Hubs), BSCs manager or their deputy or an authorized person within one business day from the time they are received, specifying the structural division (or employee) responsible for reviewing the appeal.
3.1.12. Rezolyusiya (topshiriqnoma) qo'yilgan paytdan boshlab bir ish kuni mobaynida Murojaatlar bilan ishlash Departamenti murojaatni ijro etuvchi sifatida belgilangan tarkibiy bo'linmaga (xodimga) elektron dasturi orqali ko'rib chiqish va ijrosini ta'minlash uchun taqdim etadi. Murojaatlarni belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishini ta'minlash maqsadida, kelib tushgan vaqtning o'zida (rahbar rezolyusiyasi chiqquniga qadar) tarkibiy bo'lim tomonidan ijrochiga elektron yoki zarur hollarda qog'oz shaklida ijro etish uchun yuborilishi mumkin.	3.1.12. Within one business day from the time a resolution (instruction) is assigned, the Department for Works with Appeals shall submit the appeal for review and execution to the designated structural division (or employee) via the electronic system. To ensure that appeals are reviewed within the specified timeframes, they may be sent to the executor electronically or, if necessary, in paper form by the structural division at the time they are received (prior to the issuance of the manager's resolution).
3.1.13. Bankka kelib tushgan murojaatlar bankning ish yurituviga qabul qilinishi, bo'ysunish tartibida bankning quyi bo'linmasiga filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMga yo'naltirilishi yoki tegishliligi bo'yicha boshqa davlat organi yoki boshqa tashkilotga yuborilishi mumkin.	3.1.13. Appeals received by the bank may be accepted into the bank's workflow, forwarded to a subordinate unit branch, regional branch offices (Hubs), BSCs in the order of subordination, or sent to another state body or organization as appropriate.
3.1.14. Qo'yilgan masalalarni hal etish bankning vakolati doirasiga kirmaydigan bankka kelib tushgan murojaatlar besh kun muddatdan kechiktirmay bankning vakolatli rahbari yoki tarkibiy bo'linma filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMning rahbari tomonidan imzolangan xat bilan tegishli organ yohud tashkilotlarga yuboriladi, bu haqda murojaat qiluvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar qilinadi;	3.1.14. Appeals received by the bank that fall outside the bank's authority to resolve must be forwarded to the appropriate body or organization within five days, accompanied by a letter signed by the authorized executive of the bank or the head of the relevant structural division branches, regional branch offices (Hubs), BSCs. The appellant shall be notified of this in writing or electronically;
- murojaatni ko'rib chiqishi uchun asossiz ravishda boshqa davlat organlari	- It is prohibited to unreasonably forward an appeal to other state bodies or

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

yoxud boshqa tashkilotlarga o'tkazish, qarorlari yoki harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan tarkibiy bo'linma, filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM yoki uning mansabdor shaxslariga yuborish taqiqlanadi;	organizations for review, or to send it to the structural division, branches, regional branch offices (Hubs), BSCs, or their officials whose decisions or actions (inaction) are being appealed;
- agar murojaatlarda ularni tegishli organ va tashkilotlarga yuborish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, u holda ular besh kun muddatdan kechiktirmay asoslantirilgan tushuntirish bilan murojaat qiluvchilarga qaytariladi.	- If the appeals lack the necessary information required to forward them to the appropriate authorities and organizations, they must be returned to the appellants with a substantiated explanation within five days.
3.1.15. Murojaatni ko'rib chiqayotgan Bosh ofis tarkibiy bo'linmasi, filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM xodimlari yoki uning mansabdor shaxslari o'z tashabbusiga ko'ra yoxud murojaat etuvchining iltimosiga ko'ra uni eshitishni tashkil qilishi mumkin;	3.1.15. Employees or officials of the Head Office structural division/branches, regional branch offices (Hubs), BSCs reviewing an appeal may, on their own initiative or at the request of the appellant, organize a hearing for the appellant.
- bank tarkibiy bo'linmasi xodimlari yoki uning mansabdor shaxslari murojaat etuvchiga murojaatda ko'tarilgan masalalar bo'yicha o'z fikrini bildirish va murojaat bo'yicha qo'shimcha axborot taqdim etish imkoniyatini beradi;	- Bank employees or officials provide the appellant with the opportunity to express their opinion on the issues raised in the appeal and to provide additional information regarding the appeal;
- zarur hollarda murojaat etuvchini eshitishga ekspertlarni, mutaxassislarni va manfaatdor tashkilotlarning vakillarini jalb etish mumkin.	- If necessary, experts, specialists, and representatives of interested organizations can be involved in the hearing of the appellant.
3.1.16. Bankning filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMlari tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan yozma, elektron va og'zaki murojaatlar bankka kelib tushgan kundan boshlab besh kun muddatdan kechiktirmay xat bilan yoki bankning rahbari, uning o'rinbosarlari yoxud vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolangan topshiriq bilan birga yuborilishi, bu haqda murojaat qiluvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar berilishi kerak;	3.1.16. Written, electronic, and oral appeals that need to be reviewed by the bank's branches, regional branch offices (Hubs), BSCs must be forwarded with a letter or an instruction signed by the bank's head, their deputies, or an authorized person within five days from the date they were received, and the appellant must be informed of this in writing or electronically;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va Xalq	- Appeals received electronically through the Virtual and People's Reception Offices

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

qabulxonalarini hamda Tadbirkorlar virtual ofisi orqali elektron shaklda kelib tushuvchi murojaatlarni bankning quyi filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM bo'linmalariga tegishli dasturiy ta'minotning o'zida quyi tashkilotga yuborish amaliyotini bajarish orqali yo'llanadi.	of the President of the Republic of Uzbekistan, as well as the Virtual Office for Entrepreneurs, shall be forwarded to the bank's subordinate units branches, regional branch offices (Hubs), BSCs through the relevant software, directly to the subordinate organization.
3.1.17. Agar murojaatda bir nechta tarkibiy bo'linmaga tegishli masalalar mavjud bo'lsa, ularning barchasi murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha ijro etuvchilar etib belgilanadi. Ijrochilar o'rtasida birinchi ko'rsatilgan tarkibiy bo'linma murojaatni ko'rib chiqish jarayonida boshqa ijrochilardan tegishli ma'lumotlarni oladi, umumlashtiradi va murojaatchiga javob xatini rasmiylashtiradi (rahbar topshirig'ida boshqacha tartib ko'zda tutilishi, bundan mustasno).	3.1.17. If an appeal contains issues related to several structural divisions, all of them are designated as executors for reviewing the appeal. The first structural division listed among the executors coordinates the process by gathering relevant information from the other executors, consolidating it, and preparing the response letter to the appellant (unless otherwise specified in the manager's instructions)
3.1.18. Murojaatni to'liq, xolis va o'z vaqtida ko'rib chiqish uchun qo'shimcha ma'lumotlar, ma'lumotnomalar va materiallarga zaruriyat yuzaga kelgan taqdirda bank murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxsdan, shuningdek bankning vakolatlari doirasida - belgilangan tartibda boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan qo'shimcha axborotni so'rab olishi mumkin;	3.1.18. To fully, objectively, and timely review the appeal, if additional information, references, and materials are required, the bank may request additional information from the individual or legal entity who submitted the appeal, as well as from other state bodies and organizations, following the established procedure within the bank's authority;
- agar shunday axborot bankdan so'ralgan taqdirda, ushbu axborot davlat, bank sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, bank o'zidan so'ralayotgan axborotni o'n kun ichida ma'lumot so'ragan davlat organi, tashkilot va ularning mansabdor shaxslariga belgilangan tartibda taqdim etishi lozim.	- If such information is requested from the bank, and it does not contain state or bank secrets or other information protected by law, and does not harm the rights, freedoms, and legitimate interests of individuals and legal entities, society, and the state, the bank must provide the requested information to the requesting state body, organization, and their officials within ten days.

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

3.1.19. Murojaatda ko'rsatilgan masala yuzasidan ish olib borishga (vazifa yuklatilgan) mas'ul shaxs ushbu masala bo'yicha to'liq va har tomonlama o'rganish o'tkazishga mas'uldir va u quyidagi harkatlarni amalga oshirish huquqiga ega:	3.1.19. The responsible person for handling the issue raised in the appeal (assigned to the task) is responsible for conducting a thorough and comprehensive examination of the issue and has the following rights:
- murojaatchini ko'rib chiqilayotgan masalaga aniqlik kiritish va ushbu masala yuzasidan qo'shimcha materiallar yig'ish uchun filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMGa taklif qilish;	- invite the appellant to the branches, regional branch offices (Hubs), BSCs to clarify the issue under review and to gather additional materials on the matter.
- ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha Bosh ofis tarkibiy bo'linmalari va/yoki tegishli filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLar rahbar va mas'ul xodimlaridan ma'lumot va tushuntirishlar talab qilib olish;	- Request information and explanations from the heads and responsible employees of the relevant structural divisions of the Head Office and/or the respective branches, regional branch offices (Hubs), BSCs regarding the issue under review;
- zarur hollarda murojaatlarda ko'rsatilgan masalani to'liq va batafsil o'rganish uchun murojaatni joyiga chiqib o'rganish (rahbar topshirig'i va buyruq/farmoyish asosida);	- If necessary, conduct an on-site investigation of the appeal to fully and thoroughly examine the issues mentioned in the appeal (based on the manager's instruction and order/command).
- murojaat bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish uchun boshqa davlat organlari (korxonalar, tashkilot, muassasa)ga so'rovlar yuborish.	- Send requests to other state bodies (enterprises, organizations, institutions) to gather additional information regarding the appeal.
3.1.20. Bank xodimlarining noqonuniy hatti-harakatlari, shuningdek bank mulkining talon-taroj qilinishi, kamomad, moddiy boyliklar va pul mablag'larini noqonuniy hisobdan chiqarish, suiiste'mollik holatlari, korrupsiya va boshqa shu kabi qonunbuzilishlar yuzasidan kelib tushgan shikoyatlar Bosh ofisning tegishli tarkibiy bo'linmalari (<i>Ichki audit Direksiyasi, Komplaens direksiyasi, Informatsion Texnologiyalar va Bank Xavfsizligi Direksiyasi, Xodimlarni Boshqarish Direksiyasi, Yuridik direksiyasi</i>) yoki ularning filial, Viloyat hududiy filiali (XAB),	3.1.20. Complaints regarding illegal actions of bank employees, as well as embezzlement of bank property, shortages, unauthorized write-offs of material assets and funds, abuse, corruption, and other similar violations are reviewed by a commission composed of employees from the relevant structural divisions of the Head Office (Internal Audit Directorate, Compliance Directorate, Information Technology and Bank Security Directorate, Human Resources Directorate, Legal Directorate) or their counterparts at the

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

BXMIlardagi xodimlaridan tashkil topgan komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.	branches, regional branch offices (Hubs), BSCs.
3.1.21. Agar murojaatda joyning o'zida o'rganishni talab etuvchi holat bayon qilingan bo'lsa, shuningdek boshqa zarur hollarda murojaatni ko'rib chiqayotgan bank tarkibiy bo'linmasi murojaatni joyning o'zida ko'rib chiqishi mumkin. Murojaatni joyning o'zida ko'rib chiqish bank (filial/XAB) rahbarining topshirig'i yoki uning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.	3.1.21. If the appeal describes a situation that requires on-site investigation or in other necessary cases, the bank's structural division reviewing the appeal may conduct an on-site review. The on-site review of the appeal is carried out based on the instruction or written consent of the bank (branch/HUB) manager.
3.1.22. Murojaatni murojaat qilgan yoki boshqa shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqishning imkoniyati bo'lmaganda, ular bankning vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMga taklif etilishi mumkin. Taklif etilgan murojaat qiluvchi kelmagan taqdirda bankning vakolatli mansabdor shaxsi murojaatni uning ishtirokisiz ko'rib chiqish mumkin emasligi to'g'risida javob yuboradi.	3.1.22. If it is not possible to review the appeal without the presence of the appellant or another relevant person, they may be invited to the branches, regional branch offices (Hubs), BSCs by an authorized official of the bank. If the invited appellant does not attend, the authorized official of the bank shall send a response indicating that it is not possible to review the appeal without their participation.
3.1.23. Agar murojaatda o'rtaga qo'yilgan masalalar boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga daxldor bo'lsa, ularning vakillari murojaatni ko'rib chiqishda ishtirok etish uchun bank tomonidan o'z vakolatlari doirasida jalb etiladi.	3.1.23. If the issues raised in the appeal concern the activities of other economic entities, their representatives will be involved in the review of the appeal by the bank within their authority.
3.1.24. Zarur hollarda murojaatlarni ko'rib chiqish uchun bank tomonidan tegishli mutaxassislar jalb etilishi mumkin.	3.1.24. If necessary, the bank may involve relevant specialists to review the appeals.
3.1.25. Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha bank tomonidan tegishli qaror qabul qilinadi, bu haqda darhol yozma yoxud elektron shaklda murojaat qiluvchiga xabar beriladi;	3.1.25. Based on the results of the review of appeals, the bank will make an appropriate decision and promptly inform the appellant in writing or electronically.
- murojaatni qanoatlantirmasdan qoldirish to'g'risidagi qarorni Bosh ofisda - Boshqaruv Raisi, uning o'rinbosarlari yoki vakolat berilgan shaxs, filial, Viloyat	- The decision to deny an appeal is made by the Chairman of the Management Board, their deputies, or an authorized person at the Head Office, and by the manager at the

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"					
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>				
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>				
ID: PL-25-2-102	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%;">Tahrir / Version: 1.0</td> <td style="width: 50%;">Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025</td> </tr> <tr> <td></td> <td>Effective date: 27.01.2025</td> </tr> </table>	Tahrir / Version: 1.0	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025		Effective date: 27.01.2025
Tahrir / Version: 1.0	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025				
	Effective date: 27.01.2025				

hududiy filiali (XAB), BXMarda boshqaruvchi qabul qiladi;	branches, regional branch offices (Hubs), BSCs;
- murojaatga javob xatida murojaatda ko'rsatilgan har bir masala bo'yicha vajlarni rad etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslar (zaruriyatga qarab qonun hujjatlari normalariga havolalar qilingan holda) bo'lishi kerak.	The response letter to the appeal must contain clear reasons (with references to legal norms as necessary) that either reject or confirm each issue raised in the appeal.
3.1.26. Murojaatga javob xati Boshqaruv Raisi, uning o'rinbosarlari yoki vakolat berilgan shaxs, filial/XABlarda esa boshqaruvchi tomonidan imzolanadi. filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM) boshqaruvchisi ishda bo'lmagan vaqtda uning o'rinbosari javob xatini imzolashi mumkin).	3.1.26. The response letter to the appeal is signed by the Chairman of the Board, their deputies, or an authorized person, and in the branches, regional branch offices (Hubs), BSCs, it is signed by the branch manager (the deputy manager may sign the response letter when the branch manager is unavailable);
- murojaatlarga javob xati, mumkin qadar, murojaat etilgan tilda bayon qilinadi.	- the response letter to the appeals, if possible, is written in the language of the appeal.
3.1.27. Jismoniy yoki yuridik shaxslar jamoa bo'lib murojaat qilgan taqdirda, ularning murojaatlari Qonun talablariga muvofiq ko'rib chiqiladi. Bunda murojaatga javob murojaat qilganlarning ro'yxatida birinchi bo'lib ko'rsatilgan shaxsga yoki, ularning talabiga ko'ra, boshqa shaxsga yuboriladi;	3.1.27. If individuals or legal entities submit a collective appeal, their appeals will be reviewed following the requirements of the Law. In this case, the response to the appeal is sent to the person listed first on the list of appellants, or, at their request, to another person.
- jismoniy yoki yuridik shaxsning iltimosiga ko'ra murojaatni ko'rib chiqqan Bosh ofis tarkibiy bo'linmasi yoki filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM mas'ul shaxslari murojaatga javobni uning mazmunini o'zgartirmasdan tushuntirishi, shuningdek, yo'l qo'yilgan xatolar va arifmetik xatolarni o'z tashabbusiga ko'ra yoki murojaat qiluvchining iltimosiga ko'ra, murojaat javobining mazmuniga daxl qilmagan holda tuzatishi shart;	- At the request of an individual or legal entity, the responsible persons of the Head Office's structural unit or the branch, regional branch offices (Hubs), BSCs that reviewed the application must provide an explanation of the response without altering its content. They are also required to correct any mistakes, including clerical or arithmetic errors, either on their own initiative or at the request of the applicant, as long as these corrections do not affect the substance of the response;

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

- murojaat qiluvchining murojaatga javobni tushuntirish va uni tuzatish to'g'risidagi iltimosi u kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ko'rib chiqiladi.	- The request to explain and correct the response to the appeal is reviewed within ten days from the date it was received.
3.1.28. Murojaat, unda ko'tarilgan barcha masalalar Qonun talablariga muvofiq ko'rib chiqilgan va murojaat qiluvchiga tegishli javob yuborilgan taqdirda ko'rib chiqilgan hisoblanadi.	3.1.28. An appeal is considered reviewed if all issues raised in the appeal have been reviewed following the Law's requirements and an appropriate response has been sent to the appellant;
- murojaat qiluvchiga javob yuborilgan kun murojaatni ko'rib chiqish tugallangan kun hisoblanadi, bu haqda Bosh ofisdagi murojaatlar bilan ishlovchi tarkibiy bo'linma yoki filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMdagi mas'ul xodim EHA dasturiga va hisobga olish (nazorat) kartochkasiga belgi qo'yadi.	- The decision to deny an appeal is made by the Chairman of the Management Board, their deputies, or an authorized person at the Head Office, and by the manager at the branches, regional branch offices (Hubs), BSCs.
3.1.29. Agar murojaatni ko'rib chiqish jarayonida murojaatning dublikati kelib tushsa, ushbu murojaat avval tushgan murojaat bilan birgalikda ko'rib chiqiladi hamda natijasi bo'yicha yagona javob beriladi;	3.1.29. If a duplicate of the appeal is received during the review process, the appeal is reviewed together with the initially received appeal, and a single response is provided based on the results;
- agar murojaatning dublikati murojaat ko'rib chiqilgan va javob yuborilgandan keyin kelib tushsa, u holda bank murojaat qiluvchini bu haqda yozma ravishda xabardor qiladi.	- If a duplicate of the appeal is received after the appeal has been reviewed and a response has been sent, the bank will inform the appellant of this in writing.
3.1.30. Nazoratga olingan murojaat ushbu murojaatni nazoratga olgan rahbar yoki mansabdor shaxs yoxud Murojaatlar bilan ishlash Departamenti yoki filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM dagi mas'ul xodimi tomonidan nazoratdan va ijrodan olinadi.	3.1.30. A monitored appeal is removed from monitoring and execution by the manager or official who placed the appeal under monitoring, or by the responsible employee of the Department for Works with Appeals or the branches, regional branch offices (Hubs), BSCs.
3.1.31. Yuqori turuvchi davlat organi yoki tashkilotining nazoratida turgan murojaatlar bo'yicha murojaatni ko'rib chiqqan Bosh ofis tarkibiy bo'linmasi yoki filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXM murojaat qiluvchiga yuborilgan javob xatining	3.1.31. For appeals under the supervision of a higher state body or organization, the structural division of the Head Office or branches, regional branch offices (Hubs), BSCs that reviewed the appeal must inform

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
<i>Hujjat nomi:</i>	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
<i>Document name:</i>	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
<i>ID: PL-25-2-102</i>	<i>Tahrir / Version: 1.0</i>
	<i>Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025</i>
	<i>Effective date: 27.01.2025</i>

nusxasini ilova qilgan holda murojaatni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida yuqori davlat organi yoki tashkilotiga yozma shaklda xabar beradi.	the higher state body or organization in writing about the results of the review, attaching a copy of the response letter sent to the appellant.
3.1.32. Ko'rib chiqilgan murojaatlarni va ular bilan bog'liq materiallarni saqlash (EHA dasturida) Murojaatlar bilan ishlash Departamentida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.	3.1.32. The storage of reviewed appeals and related materials (in the EDM system) is carried out in the prescribed manner by the Department for Works with Appeals.
3.2. "Aloqa markazi" orqali O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan kelib tushgan murojaatlarni qabul qilish, rasmiylashtirish va ko'rib chiqish.	3.2. Receiving, formalizing, and reviewing appeals received through the "Contact Center" based on the Law of the Republic of Uzbekistan on "Appeals of Individual and Legal Entities".
3.2.1. "Aloqa markazi" orqali kelib tushgan murojaatlar og'zaki murojaat sifatida mazkur Nizomda belgilangan qoidalarga asosan qayd etiladi, ro'yxatga olinadi va ko'rib chiqiladi.	3.2.1. Appeals received through the "Contact Center" are recorded, registered, and reviewed as oral appeals in accordance with the rules established in this Regulation.
3.2.2. "Aloqa markazi"ning raqamlari ommaviy axborot vositalari, "Ipoteka-bank" ATIBning veb-sayti va filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLarida tashkil etilgan maxsus stendlarga kiritish va boshqa yo'llar orqali jismoniy hamda yuridik shaxslar e'tiboriga yetkaziladi.	3.2.2. The "Contact Center" numbers are communicated to individuals and legal entities through mass media, the website of JSCMB "Ipoteka-bank", and special stands set up at the bank's branches, regional branch offices (Hubs), BSCs, as well as other means.
3.2.3. "Aloqa markazi" orqali kelib tushgan murojaatlar (ariza, shikoyat, takliflar) "Aloqa markazi" xodimlari tomonidan qabul qilinib, tegishli ma'lumotlar bilan birga Murojaatlar bilan ishlash Departamentiga tegishli dasturiy ta'minot (Service Desk) orqali yetkaziladi. Ushbu murojaatlarni rahbar yoki vakolat berilgan shaxs rezolyusiyasiga kiritish, rasmiylashtirish va nazoratga olish Murojaatlar bilan ishlash Departamenti xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.	3.2.3. Appeals (applications, complaints, suggestions) received through the "Contact Center" are accepted by the "Contact Center" employees and forwarded to the Department for Works with Appeals via the appropriate software (Service Desk) along with the relevant information. The inclusion of these appeals in the resolution of the manager or authorized person, their registration, and monitoring are carried out by the employees of the Department for Works with Appeals.

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

3.2.4. "Aloqa markazi" orqali kelib tushgan murojaatlarni qabul qilish "Aloqa markazi" xodimlaridan, ushbu murojaatlarni rasmiylashtirish esa Murojaatlar bilan ishlash Departamenti xodimlaridan tashqari Bosh ofisning boshqa xodimlari tomonidan amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.	3.2.4. The acceptance of Appeals received through the "Contact Center" is carried out by the employees of the "Contact Center," and the formalization of these Appeals by other employees of the Head Office other than the staff of the Department for Works with Appeals is not allowed.
3.2.5. "Aloqa markazi" orqali kelib tushgan murojaatlarni to'plash va umumlashtirish uchun telefondagi so'zlashuvlarni yozish funksiyasi bilan jihozlangan telefon apparatlaridan foydalaniladi.	3.2.5. Appeals received through the "Contact Center" are collected and summarized using telephones equipped with a call recording function.
3.2.6. "Aloqa markazi" orqali kelib tushgan murojaatlarda ushbu Nizomning 3- ilovasida keltirilgan rekvizitlar bo'lishi kerak.	3.2.6. Appeals received through the "Contact Center" must include the requisites listed in Appendix 3 of this Regulation.
3.2.7. "Aloqa markazi" orqali kelib tushgan murojaatlar elektron manba (server)ga yoziladi va besh yil mobaynida saqlanadi.	3.2.7. Appeals received through the "Contact Center" (Appeals, complaints, proposals) are recorded in an electronic source and stored for five years.
3.2.8. "Aloqa markazi" orqali murojaat qilishda murojaat qiluvchi o'zining familiyasi, ismi, otasining ismini, yashash joyi (yuridik shaxs nomidan murojaat qilganda, yuridik shaxsning nomi va manzili) to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek agar u tadbirkorlik sub'ekti bo'lsa, tadbirkorlik sub'ektining nomi, xizmat ko'rsatuvchi filiali, javob yuborilishi kerak bo'lgan pochta manzilini (murojaatchining istagi bo'lgan hollarda qayta bog'lanish uchun telefon raqamini) ma'lum qilishi hamda murojaatning mohiyati va mazmunini bayon qilishi shart.	3.2.8. When making a request through the "Contact Center", the requester must provide their surname, first name, patronymic, place of residence (if the request is made on behalf of a legal entity, the name and address of the legal entity), as well as, if they are a business entity, the name of the business, the servicing branch, and the postal address to which the response should be sent. If desired, the requester may also provide a phone number for follow-up contact. Additionally, the requester must state the nature and content of the request.
3.2.9. Tegishli dasturiy ta'minot orqali qabul qilingan murojaat bir ish kunidan kechiktirilmay Murojaatlar bilan ishlash Departamentining mas'ul xodimlari tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi hamda ko'rib chiqish	3.2.9. Appeals received through the appropriate software are registered by the responsible employees of the Department for Works with Appeals within one business day and forwarded electronically via the EDM system to the heads of the relevant

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

uchun tegishli tarkibiy bo'linmalar boshliqlariga elektron ko'rinishda EHA dasturi orqali yuboriladi hamda Murojaatlar bilan ishlash Departamenti xodimlari tomonidan nazoratga olinadi.	structural divisions for review. The employees of the Department for Works with Appeals also monitor these appeals.
3.2.10. Ushbu Nizomning 3.2.8-bandida ko'rsatilgan axborot va ma'lumotlar taqdim etilmagan yoki ularning taqdim etilmasligi sababi asossiz bo'lgan taqdirda, murojaatlar ro'yxatdan o'tkazilmaydi va ko'rib chiqilmaydi, shuningdek belgilangan tartibdagi nazorat varaqasi to'ldirilmaydi. Bunday murojaatlar tegishli dasturiy ta'minot orqali "Aloqa markazi"ga izoh bilan qaytariladi.	3.2.10. If the information and data specified in clause 3.2.8 of this Regulation are not provided or if the reasons for not providing them are unjustified, the appeals will not be registered or reviewed, and the prescribed control sheet will not be completed. Such appeals will be returned to the "Contact Center" with an explanation through the appropriate software.
3.2.11. "Aloqa markazi" orqali kelib tushgan murojaatlar ijro muddati ko'rsatilgan holda taalluqliligiga ko'ra bank filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLariga ko'rib chiqish va xulosa kiritish (javob xati yuborish) uchun yo'llanishi mumkin.	3.2.11. Appeals received through the "Contact Center" may be forwarded, with the specified execution deadline, to the relevant bank branches, regional branch offices (Hubs), BSCs for review and conclusion (sending a response letter).
3.2.12. Murojaatni ko'rib chiqish natijalari va qabul qilingan qarorning mazmun-mohiyati to'g'risida bank Boshqaruvi Raisi, tegishli yo'nalishlar bo'yicha rais o'rinbosarlari yoki vakolat berilgan shaxs tomonidan murojaat qiluvchi yozma ravishda xabardor qilinadi;	3.2.12. The results of the review of the application and the content of the decision made are informed to the applicant in writing by the Chairman of the Management Board, the deputy chairpersons for the relevant directions, or the authorized person;
- murojaat qiluvchining murojaati yuzasidan xabardor qilinganligi to'g'risida EHA dasturida tegishli qaydlar kiritiladi.	- the fact that the applicant has been informed about the review of their application is recorded in the EDMS program.
3.2.13. Murojaat qiluvchiga berilgan javobning nusxasi ijrochi tarkibiy bo'linmalardan elektron yoki qog'oz shaklda qabul qilib olinadi va Murojaatlar bilan ishlash Departamentida saqlanadi.	3.2.13. A copy of the response given to the applicant is received in electronic or paper form from the executing structural units and is stored in the Department for Works with Appeals.
3.2.14. Murojaatlar bilan ishlash Departamenti tomonidan murojaatlarini ko'rib chiqilishida qonun hujjatlari talablari buzilishi aniqlangan hollarda, Bosh ofisning	3.2.14. If violations of legal requirements are identified by the Department for Works with Appeals during the review of appeals,

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"					
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>				
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>				
ID: PL-25-2-102	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%;">Tahrir / Version: 1.0</td> <td>Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025</td> </tr> <tr> <td></td> <td>Effective date: 27.01.2025</td> </tr> </table>	Tahrir / Version: 1.0	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025		Effective date: 27.01.2025
Tahrir / Version: 1.0	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025				
	Effective date: 27.01.2025				

<p>ijrochi tarkibiy bo'linmalari tomonidan tegishli filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLariga aniqlangan qonun buzilishlarini, ularning sabablarini va qonun buzilishiga olib kelayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida ijro muddatlarini ko'rsatgan holda bajarilishi majburiy bo'lgan (Rais yoki uning o'rinbosarlari yoki vakolat berilgan shaxs imzosi bilan) ko'rsatmalar yuboriladi.</p>	<p>mandatory instructions (signed by the Chairman or their deputies or an authorized person) are sent by the Head Office's executive structural divisions to the relevant branches, regional branch offices (Hubs), BSCs. These instructions indicate the identified legal violations, their causes, and the conditions leading to the violations, along with the execution deadlines for rectifying them.</p>
<p>3.2.15. "Aloqa markazi" orqali kelib tushgan murojaatlarni nazoratdan chiqarish, mazkur murojaat yuzasidan murojaatchi yozma ravishda xabardor qilinganidan so'ng Murojaatlar bilan ishlash Departamenti tomonidan amalga oshiriladi.</p>	<p>3.2.15. The removal of appeals received through the "Contact Center" from monitoring is carried out by the Department for Works with Appeals after the appellant has been informed in writing regarding the appeal.</p>
<p>3.3. Bankning rasmiy veb-sayti va rasmiy elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlarni qabul qilish, rasmiylashtirish va ko'rib chiqish.</p>	<p>3.3. Receiving, formalizing, and reviewing Appeals received through the official website and official email of the bank.</p>
<p>3.3.1. Bankning rasmiy veb-sayti va rasmiy elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlar Marketing va kommunikatsiyalar direksiyasi, "Aloqa markazi" yoki Ijro Intizomini Nazorat Qilish Departamenti tomonidan qabul qilinadi va Murojaatlar bilan ishlash Departamenti mas'ul xodimlariga murojaat@ipotekabank.uz elektron pochta manzili orqali yetkaziladi. Ushbu murojaatlar EHA dasturida belgilangan tartibda qayd etiladi hamda mazkur Nizom talablari asosida ko'rib chiqiladi. Murojaatlarda ushbu Nizomning 3-ilovasida keltirilgan rekvizitlar bo'lishi kerak.</p>	<p>3.3.1. Appeals received through the bank's official website and official email are accepted by the Marketing and Communications Directorate, the "Contact Center," or the Executive Discipline Control Department and forwarded to the responsible employees of the Department for Works with Appeals via the email address murojaat@ipotekabank.uz. These appeals are recorded in the EDM system in the prescribed manner and reviewed in accordance with the requirements of this Regulation. The appeals must include the details specified in Appendix 3 of this Regulation.</p>
<p>3.3.2. Quyidagilar foydalanuvchining shaxsiy kabinet orqali tushgan murojaatini ko'rib chiqishni rad etish uchun asos hisoblanadi:</p>	<p>3.3.2. The following are considered grounds for refusing to review an application received through the user's personal account:</p>

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

- odobsizlik mazmunidagi murojaatlar (uyatsiz yoxud haqoratli iboralar, tahdidlar, mantiq va ma'nosi bo'lmagan takliflar va shunga o'xshash murojaatlar);	- appeals containing impolite content (indecent or offensive expressions, threats, illogical and meaningless proposals, and similar Appeals);
- murojaat matnida tushunarsiz qisqartirishlar yoki reklama materiallari mavjud bo'lgan, tarkibida aniq arizalar, shikoyatlar yoki takliflar bo'lmagan murojaatlar;	- appeals with text containing incomprehensible abbreviations or advertising materials, or lacking clear complaints, proposals, or appeals;
- anonim murojaatlar;	- anonymous appeals;
- jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda;	- appeals submitted through representatives of physical and legal persons, in the absence of documents confirming their authority;
- Qonun va ushbu Nizomda ko'rsatilgan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.	- appeals not complying with other requirements specified by the law and this Regulation.
4. Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari	4. Deadlines for reviewing Appeals
4.1. Ariza yoki shikoyat, masalani mazmunan hal etishi shart bo'lgan Bosh ofis yoki filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLarga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilib hal etiladi.	4.1. An application or complaint that requires substantive resolution must be reviewed within fifteen days from the date it is received at the Head Office or branches, regional branch offices (Hubs), BSCs, and up to one month if additional investigation and/or verification, or the collection of additional documents, is required.
4.2. Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallar so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari Boshqaruv Raisi yoki uning o'rinbosarlari yoxud vakolat berilgan shaxs, filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLarda boshqaruvchi tomonidan istisno tariqasida ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu	4.2. In cases where it is necessary to conduct an investigation, request additional materials, or take other measures to review applications and complaints, the review period may be extended by up to one month, as an exception, by the Chairman of the Management Board, their deputies, or an authorized person, branch, Regional Territorial Branch (HUB), or by the manager

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025
	Effective date: 27.01.2025

haqda murojaat etuvchiga shu kunning o'zida yozma shaklda xabar qilinadi.	of the BSC. The applicant will be informed of this in writing on the same day.
4.3. Taklif bankka kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o'n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.	4.3. Proposals are reviewed within one month from the date they are received at the bank, except for proposals requiring additional investigation, about which the physical or legal person who submitted the proposal will be informed in writing within ten days.
4.4. Ayrim hollarda Boshqaruv Raisi yoki uning o'rinbosarlari yoxud vakolat berilgan shaxs, filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLlarda esa boshqaruvchi murojaatlarni ko'rib chiqish muddatini qisqartirishi mumkin.	4.4 In certain cases, the Chairman of the Management Board, their deputies, or an authorized person, and in branches, regional branch offices (Hubs), BSCs, the manager, may shorten the review periods for appeals.
4.5. Murojaatlar bilan ishlash muddatlari ular bankka kelib tushgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar tegishli muddatning oxirgi kuni dam olish va bayram kunlariga to'g'ri kelsa, dam olish va bayram kunidan oldingi ish kuni muddat tugaydigan kun hisoblanadi.	4.5. The deadlines for handling Appeals are calculated from the day they are received at the bank. If the last day of the relevant period falls on a non-working or public holiday, the last working day before the holiday is considered the deadline.
5. Murojaatlarni ko'rmay qoldirish va ko'rib chiqishni tugatish	5. Ignoring and concluding the review of appeals
5.1. Quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:	5.1. The following appeals will not be reviewed:
- anonim murojaatlar;	- anonymous appeals;
- jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda;	- appeals submitted through representatives of physical and legal persons, in the absence of documents confirming their authority;
- Qonunda va ushbu Nizomda ko'rsatilgan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.	- appeals that do not comply with other requirements specified in the law and this Regulation;
5.2. Murojaatni anonim deb e'tirof etish Murojaatlar bilan ishlash Departamenti yoki murojaatni ko'rib chiquvchi tarkibiy bo'linma tomonidan amalga oshiriladi;	5.2. The recognition of an application as anonymous is carried out by the Department

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025
	Effective date: 27.01.2025

	for Works with Appeals or the structural unit reviewing the application.
- murojaat anonim deb e'tirof etilganda bu haqda xulosa tuziladi. Xulosada murojaatni anonim deb e'tirof etish uchun asoslar ko'rsatiladi va Bosh ofisda Rais o'rinbosari yoki vakolat berilgan shaxs, filial, Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLarda esa boshqaruvchi tomonidan tasdiqlanadi;	- If the appeal is recognized as anonymous, a conclusion is drawn up indicating the reasons for recognizing it as anonymous. The conclusion is confirmed by the Deputy Chairman or an authorized person at the Head Office, and by the manager at the branches, regional branch offices (Hubs), BSCs.
- anonim deb e'tirof etilgan murojaatlar xulosa tasdiqlangan paytdan boshlab nazoratdan yoki ijrodan olinadi va ko'rib chiqilmaydi.	- anonymous Appeals are removed from control or execution from the moment the conclusion is approved and will not be reviewed.
5.3. Jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar kelib tushganda, Murojaatlar bilan ishlash Departamenti yoki filial mas'ul xodimlari ularning vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjudligini tekshiradi.	5.3. When appeals submitted through representatives of physical and legal persons are received, the responsible staff of the Department for Works with Appeals or the branch checks the presence of documents confirming their authority.
- agar murojaatda jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo'lmasa, bu haqda xulosa tuziladi va Murojaatlar bilan ishlash Departamenti rahbari yoki filial, Viloyat hududiy filiali (XAB). BXM boshqaruvchisi tomonidan tasdiqlanadi.	- If there are no documents confirming the authority of the representative of the physical or legal person in the application, a conclusion is made about this, which is approved by the head of the Department for Works with Appeals or the branches, regional branch offices (Hubs), BSCs manager.
- jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud emasligi to'g'risidagi xulosa tasdiqlangan paytdan boshlab ushbu murojaat ko'rib chiqilmaydi, bu haqda murojaat qiluvchi yozma ravishda xabardor qilinadi.	- appeals will not be reviewed from the moment the conclusion about the absence of documents confirming the authority is approved, and the applicant will be informed in writing about this.
- murojaatlar ko'rmay qoldirilganda tegishli xulosa tuziladi, mazkur xulosa Boshqaruv Raisi yoki uning o'rinbosarlari yoxud vakolat berilgan shaxs, bank filial,	- when Appeals are ignored, a relevant conclusion is made, which is approved by the Chairman of the Management Board, his deputies, or an authorized person, and by

"Ipoteka-Bank" ATIB / JSCMB "Ipoteka-Bank"	
Hujjat nomi:	<i>"Ipoteka-bank" ATIB tizimida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom</i>
Document name:	<i>JSCMB "Ipoteka-bank" system Regulations on the procedure for handling applications from individuals and legal entities</i>
ID: PL-25-2-102	Tahrir / Version: 1.0
	Kuchga kirish sanasi: 27.01.2025 Effective date: 27.01.2025

Viloyat hududiy filiali (XAB), BXMLarida esa boshqaruvchi tomonidan tasdiqlanadi.	the branch manager in branches, regional branch offices (Hubs), BSCs.
5.4. Murojaatlarni ko'rib chiqish quyidagi hollarda tugatiladi:	5.4. The review of appeals is concluded in the following cases:
